

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ALIMOV TOSHEMIR AMIRKULOVICH**

**BADIIY TARJIMADA GENDER ASPEKTINING  
QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI  
("O'tkan kunlar" romani tarjimalari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Oglavleniye avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Alimov Toshtemir Amirkulovich**

Badiiy tarjimada gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi  
(“O‘tkan kunlar” romani tarjimalari misolida)..... 5

**Алимов Тоштемир Амиркулович**

Сравнительно-типологическое исследование гендерного аспекта  
в художественном переводе (на примере переводов романа  
«Минувшие дни»)..... 25

**Alimov Toshtemir Amirkulovich**

Comparative-typological study of the gender aspect in literary translation  
(on the example of translations of the novel “By gone days”)..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 51

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ALIMOV TOSHEMIR AMIRKULOVICH**

**BADIIY TARJIMADA GENDER ASPEKTINING  
QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI  
("O'tkan kunlar" romani tarjimalari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

**Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fil 2751 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tersu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ergasheva Guli Ismoil qizi**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xudoyqulov Abdulla Eshquvatovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Xoshimov G'anijon Mirzaaxmedovich**  
filologiya fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04-raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "6" dekabr soat 13:00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz). Termiz davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (225 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "29" noyabr kuni tarqatildi.  
(2023-yil "29" noyabr daqi 44 raqamli reyestr bayonnomasi).



**B. Umurqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**A. Eshmo'minov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi,  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**P. Bakirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunoligida gender munosabatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Sababi gender muammosi ma'naviyatni yuksaltirish, o'zlikni anglash, inson haq-huquqlarini poymol etmaslik kabi masalalarni ifodalaydi. Tilning inson bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olgan holda, inson ongi, dunyoqarashi, ruhiy va amaliy faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan masalalar tarjima sohasida o'z aksini topishi mumkin. Tarjimada *ayol* va *erkak* tushunchalarining gender, pragmatik, kognitiv xususiyatlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur masalani o'rganish uchun turli milliy madaniyatlarni ifodalovchi tillardagi vositalarni qiyoslash, milliy mentalitet va uni ifodalovchi xususiyatlarni tahlil etish lozim.

Dunyo tilshunosligida gender sohasiga oid termin va leksemalarning ingliz va o'zbek tillari kesimida qiyosiy-tipologik tahlil qilish mazkur tillarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi lisoniy va ijtimoiy omillarning farqli va o'xshash xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida genderga oid ko'p qatlamli leksemalarni tizimlashtirish (maqbullashtirish), to'g'ri tarjima qilish, tartibga solish kabi masalalarga munosib yechim topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz tarjimashunoslik sohasida genderga oid tushunchalarning leksik-semantik, grammatik, etimologik, struktur-funksional xususiyatlarini o'zbek va ingliz tili misolida qiyosiy aspektida o'rganishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa lingvistik jihatdan gender sohasiga oid termin va leksemalarni chuqur va atroflicha o'rganish milliy tarjimashunoslik sohasining dolzarb muammolaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Globallashtirish davrida chet tillarni o'rganish tizimini, fan va ta'lim integratsiyasi jarayonlarini takomillashtirishning muhim omili sifatida qaralishi "nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak"<sup>1</sup>ligi bilan belgilanadi. Mazkur fikrdan kelib chiqqan holda, ishimiz uchun tanlangan mavzuning bugungi kun uchun dolzarb ekanligini qayd etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari; 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2020-yildagi PF-6084-sonli farmoni // <https://lex.uz/docs/5058351>

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Bugungi kunda gender muammolari koʻplab tilshunoslarning ham tadqiqot obyektiga aylanganligi bejiz emas. Buni soʻngi yillardagi til va madaniyat muammosiga boʻlgan eʼtibor va qiziqish, zamonaviy tilshunoslikning antropologik paradigmadagi rivojlanishi bilan tushuntirish mumkin. Oʻzbek tilshunosligida tarjimaga gender aspektining taʼsiri, erkak va ayol tarjimonlarning tarjimaga yondashuvlarining oʻziga xos xususiyatlari bir qancha tilshunos olimlarning ishlarida oʻz ifodasini topgan. Kognitiv va gender lingvistika muammolari oʻzbekistonlik tilshunos olimlar A.A. Abduazizov, D.U. Ashurova, A.E. Mamatov, M.I. Rasulova, Sh.S. Safarov, R.X. Shirinova, Oʻ.K. Yusupov, J.A. Yoqubov, I.M. Toʻxtasinov, G.I. Ergasheva, D. Agzamova, G.Sh. Ataxanova, M.R. Galiyeva, A.A. Morozova, M.K. Xalikova, Gʻ.Raximov, S.B. Shodmonova, Z. Teshaboyeva, M.Sharaxmetova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida koʻrib chiqilgan.<sup>2</sup> Tildagi gender omillar rus tilshunos-genderologlar O.A. Vaskova, M.D. Gorodnikova, Y.I. Goroshko, D.O. Dobrovolskiy, I.V. Zikova, A.V. Kirilina, V.A. Nikolskaya, V.V. Potapova, V.N. Teliya, I.I. Xaleyeva va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan<sup>3</sup>. Ularning ilmiy ishlarida gender til madaniyatining asosiy konsepti, tilning kommunikativ funksiyalari xususiyatlarini ifodalash omili sifatida oʻrganilgan.

---

<sup>2</sup> Ашурова Д.У. Коммуникативно-когнитивная теория текста // *Linguistics*. – Тошкент, 2010. – С. 17-24; Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент: Фан, 2005. – 268 с.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 89 б.; Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2011. – 30 с.; Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1999. – 24 с.; Эргашева Г.И. *Applied linguistics: Terminology and Translation through gender discourse lens*. – Tashkent: Navruz, 2018. – 154 p.; Атаханова Г.Ш. Номинации «возраст человека» в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологическом аспектах (на материале англ. языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2006. – 20 с.; Морозова А.А. Лингвокогнитивное содержание гендерных стереотипов женственности и мужественности (на материале испанского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд: СамГИИЯ, 2011. – 25 с.

<sup>3</sup> Васькова О.А. Гендер как предмет лексикографического описания (на материале фразеологии). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2006. – 21 с.; Городникова М.Д. Гендер в коммуникативной интеракции // *Гендер: язык, культура, коммуникация: Доклады второй Международной конференции*. – М.: МГУ, 2002. – С. 70-76; Горошко Е.И. Особенности Международной конференции. – М.: МГУ, 2002. – С. 70-76; Горошко Е.И. Особенности мужского и женского стиля письма // *Гендерный фактор в языке и коммуникации: Сб. науч. тр. МГЛУ. Вып. 446*. – М., 1999. – С. 44-60; Добровольский Д.О., Кирилина А.В. Феминистская идеология в гендерных исследованиях и критерии ее научности. // *Гендер как интрига познания*. – М.: Рудомино, 2000. – С. 19-35; Зыкова И.В. Гендерный компонент в структуре и семантике фразеологических единиц современного английского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – М.: МГУ, 2002. – 219 с.; Кирилина А.В. Гендерные аспекты языка и коммуникации: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 2000. – 40 с.; Никольская В.А. Гендерные асимметрии и стереотипы в английской фразеологии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Н. Новгород, 2005. – 23 с.; Потапов В.В. Современное состояние гендерных исследований в англоязычных странах // *Гендер как интрига познания*, 2000. – №1. – С. 94-95; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Наука, 1996. – 334 с.; Халеева И.И. Гендер как интрига познания // *Гендер как интрига познания* Miremadi S.A. Ph.D. (1991).

Shuningdek, mavzu doirasida O.A. Burukina, M.Ch. Chutpulatov, E.I. Goroshko, I. Gofman O. Espersen, S.Y. Kamolova, A.V. Kirilina, T.A. Klimenkova, N.S. Nasrullayeva, L.A. Nefedov, V.V. Potapov, N.L. Pushkareva, T.B. Ryabova, Dj. Skott, E.V. Traylina, R. Unger, K. Uest, I.I. Xaleyeva va b.) tarjimashunoslikda (L.S. Barxudarov, V.S. Vinogradov, N.K. Garbovskiy, G.R. Gachechiladze, A.A. Gorbachevskiy, V.N. Komissarov, Dj. Ketford, T.R. Levitskaya, Y. Nayda, Y.L. Obolenskaya, A.A. Smirnov, Y.P. Solodub, A.V. Fedorov, A.D. Shveytser larning ilmiy asarlari metodologik asos sifatida xizmat qilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Xorijiy va ona tilining qiyosiy tipologiyasi" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** badiiy tarjimada gender aspektining o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy-tipologik va chog'ishtirma asosida ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

gender va tarjima yo'nalishining asosiy masalalarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillarida *tarjimada gender* aspektini tadqiq etish;

tarjima transformatsiyalari muammosini ochib berish;

tarjima va stereotip muammosini ochib berish;

"O'tkan kunlar" romani tarjimasida genderga oid tushunchalarni tarjima qilish usullarini ochib berish;

"O'tkan kunlar" romani tarjimasida kategoriyalarning maqbullik, o'qish – darajasi va boshqa ko'plab omillar kabi nuqtayi nazardan o'rganish;

tarjimonning gender identifikatsiyasining tarjimaga ta'siri muammosini tadqiq etish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida "O'tkan kunlar" romanidagi genderga oid tushunchalar hamda tarjimonning gender xususiyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** "O'tkan kunlar" romanidagi genderga oid tushunchalarni tarjima qilish xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada lingvistik tavsiflash, qiyosiy-tipologik (chog'ishtirma), tarjima transformatsiyalari, tarixiy-etimologik, komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

ijtimoiy genderni belgilash jamiyatdagi stereotiplar, ijtimoiy-tarixiy va kontekstual omillarga bog'liq holda bir jamiyatdan, madaniyatdan, kontekstdan yoki davrdan boshqasiga o'zgarishi sababli, tarjimonlarning tarjima qilishda murakkab muammolarga duch kelishining omili ekanligi murojatga oid so'zlar; qarindoshlikka oid so'zlar; tashqi ko'rinishga oid so'zlar; subkategoriyalar; realiya; lingvokulturemalar kabi kategoriyalar orqali isbotlangan;

"O'tkan kunlar" romani tarjima variantlarining sifat ko'rsatkichlari baholash mezonlarining *aniq va to'g'ri, o'rtacha aniq, aniq emas*, tarjimaning maqbullik darajasi – *ma'qul, o'rtacha ma'qul, ma'qul emas*, tarjimaning o'qilish darajasi – *yuqori, o'rtacha, past* kabi mezonlarini ishlab chiqish orqali asoslangan;

“O‘tkan kunlar” romani gender ifodalangan quyidagi omillar, ya’ni *urf-odatga; kiyim-kechakka; murojaatga; xarakterga; kasb-faoliyatga oid so‘zlar va ekvivalentsiz leksika so‘zlari* kategoriyalar asosida dalillangan;

A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani gender jihati asarning tarkibiy elementi sifatida tilning har bir sathida (morfologik, leksik, sintaktik va matn darajasida) namoyon bo‘lishi, gender bilan belgilangan birliklar ma’lum funksiyani bajarishi va ularning ifodalanishi adekvat tarjimaning muhim omili ekanligi isbotlangan.

**Tadqiqot ishining amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalari umumiy tilshunoslik, til va jamiyat, til va tafakkurning o‘zaro ta’siri, kognitiv bilish jarayonida tilning o‘rni va ahamiyati kabi muammolarni ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

To‘plangan materiallar va ularning tahlilidan umumiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, sotsiolingvistika va psixolingvistika, leksikologiya, kognitiv tilshunoslik, gender tilshunosligi va terminologiyasi kurslari bo‘yicha ma’ruzalar o‘qishda, filologiya fakulteti talabalari uchun darsliklar va qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo‘llanilgan yondashuvlar, usullar, nazariy ma’lumotlarning ishonchli va aniq manbalarga asoslanganligi; tahlilda aniq daliliy materiallarga tayanilganligi, dissertatsiya mavzusi yuzasidan respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy nashrlarda maqolalar chop etilganligi, nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya asoslari, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi nazariya hamda metodlarga asoslanganligi, tadqiqot natijalari umumiy tilshunoslik, til va jamiyat, til va tafakkurning o‘zaro ta’siri, kognitiv bilish jarayonida tilning o‘rni va ahamiyati kabi muammolarni ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to‘plangan materiallar va ularning tahlilidan umumiy tilshunoslik, sotsiolingvistika va psixolingvistika, leksikologiya, kognitiv tilshunoslik va gender tilshunoslik kurslari bo‘yicha ma’ruzalar o‘qishda, filologiya fakultetlari talabalari uchun darsliklar va qo‘llanmalar yaratishda, bir yoki ko‘ptilli gender istilohlari lug‘atlarini tuzishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** “Badiiy tarjimada gender aspektining qiyosiy tipologik tadqiqi” (“O‘tkan kunlar” romani tarjimalari misolida) mavzusini o‘rganish natijalari asosida: tarjimaning gender aspekti, gender tilshunosligi va tarjimashunoslik chorrahasida gender masalasining tarjima natijasiga ta’siri bilan bog‘liq tarjima muammolarini tahlil qilish, badiiy tarjimada gender omili asar va tarjima matnining strukturaviy elementi sifatida xizmat qilishiga oid ilmiy xulosalaridan FA-F1-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z

yasalishi” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zRFAQQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 15-may 17-01/147-son ma’lumotnomasi). Natijada tarjima transformatsiyalari muammosini aniqlash, genderga oid tushunchalarni tarjima qilish amaliyotini yangi sifat darajasiga ko‘tarishga va tarjimaga doir tahrir dasturlarini ishlab chiqishga erishilgan;

A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani gender jihati asarning tarkibiy elementi sifatida tilning har bir sathida (morfologik, leksik, sintaktik va matn darajasida) namoyon bo‘lishi, gender bilan belgilangan birliklar har bir darajada ma’lum funksiyani bajarishi va ularning ifodalanishi adekvat tarjimaning muhim omili ekanligi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining “Najot bilimda” nomli radioeshittirishi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 24-avgustdagi 17-05/248-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga, eshittirishning ilmiy-ommaboplik xususiyati oshirilishiga erishilgan;

tarjimada gender aspekti muammolari, tarjimonning gender identifikatsiyasining tarjimaga ta’siri, tarixiy asarning badiiyligida tarix va milliylik chambarchas bog‘liqligini belgilovchi omillarning tahlil qilinishi, ilmiy-nazariy qarashlar va gender ko‘rsatkichga ega bo‘lgan kategoriyalarga oid xulosalardan Erasmus+ dasturining ICM, KA-107-2020-1-DE01-KA107-005433-Yevropa Ittifoqi hamda O‘zbekiston Oliy Ta’lim muassasalari o‘rtasida xalqaro tajriba almashinuvi doirasida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Rur universiteti o‘rtasidagi qo‘shma loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2022-yil 12-sentabrdagi 12/22-son ma’lumotnomasi). Genderga oid tushunchalarning semantik, morfologik va sintaktik usullar yordamida shakllanishi xususiyatlari ham modullarni ilmiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, OAK e’tirof etgan jurnallarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta maqolalar nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi ilovadan tashqari 150 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganli darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlangan, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy

etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Gender tadqiqotlarining nazariyasi va metodologiyasi”** nomli birinchi bobida antroposentrik paradigmadagi lingvokulturologiyaning metodologik asoslari o'rganilib, lingvokulturologik tadqiqotlar obyekti hisoblangan milliy stereotiplar tadqiq etilgan. Bugungi kunda “gender” tushunchasi fanlararo aspektida ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o'rganilmoqda. Yozuvchi va shoirlar asarlarining aslyat va tarjimalarining qiyosiy tahlili asarlar tarjimasidagi gender farqlarini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Shunga asoslanib, tarjimani ham erkak, ham ayol tarjimon tomonidan bajarilgan variantlarining asosiy farqlarini, shuningdek, tarjimon asl matnini leksik va sintaktik jihatdan qanchalik darajada aniq saqlay olishini aniqlashimiz mumkin.

Yaqin vaqtgacha tarjima faqat filologiya fanlari doirasida – tarjima nazariyasi, qiyosiy lingvistika, adabiyotshunoslik va shu kabi yo'nalishlar doirasida o'rganilgan. Biroq XX asrga kelib, shaxsga qiziqish va uning turli sohalarida namoyon bo'lishi tarjimada inson omilining ham hisobga olinishi zaruratini keltirib chiqardi.

Yangi antroposentrik paradigmadagi eng avvalo, tarjimalardagi farqlar asosan biologik omillarga bog'liq bo'lib, bu ikki jins o'rtasidagi psixologik va nutq bilan aloqador bo'lgan farqlarga ta'sir qiladi.

Ko'pchilik erkak va ayollarning hayot tajribasi turlicha bo'lganligi sababli ularning yozuvchilik san'ati ham farqlanadi degan fikrga qo'shiladi. Ba'zi tanqidchilarga ko'ra, erkaklarga qaraganda ayol yozuvchilar asarni tartib va izchillik bilan yozishadi. Adabiyotda gender masalasini tadqiq qilish ikki jihatdan namoyon bo'ladi. Birinchidan, ayol yozuvchilarning hissiyotlari va xulq-atvorlari o'z asarlarida o'zining ifodasini topadi. Ikkinchidan, ayol ijodkorlarning asarlarida erkak kishining ta'rifi o'z nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib tasvirlanadi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, erkak qahramonni ayol kishi qanday tasavvur qilsa, shunday tasvirlaydi.

Gender lisoniy kategoriya hisoblanmaydi, biroq uning mazmuni va mohiyati til tuzilmalarini tahlil qilish yo'li bilan ochib berilishi mumkin hamda bu jinsning madaniy voqelanishini lingvistik o'rganish zarurligini taqozo etadi<sup>4</sup>. Gordon Elizabet genderni jamiyat ijtimoiy tuzilishining asosiy o'lchovi deb hisoblaydi<sup>5</sup>. Tilshunos va tarjimashunoslarning turli xil nuqtayi nazarlarini taqqoslagan holda, genderni til vositalarida va muayyan jinsga mansub vakillarining nutqiy faoliyati xususiyatlarida namoyon bo'ladigan konsept yoki kognitiv tushdagi hodisa sifatida belgilash mumkin.

Tilda *antroposentrizmning* yuzaga kelishiga biologik va ijtimoiy omillar sabab bo'lib, ularning har ikkisi gender stereotiplarining yuzaga kelishi va shakllanishiga ta'sir qilishiga qaramasdan ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. A. Kirilining fikriga ko'ra, “shaxsning ijtimoiylashuvi – uning jamiyatga qo'shilishi, unga moslashishi – oila, maktab, din, ommaviy axborot vositalari va mehnat bozori

---

<sup>4</sup>*Translation and Interpretation*. Published by SAMT, p.23. – M.: Высшая школа, 1999. – С. 24.

<sup>5</sup> Gordon Elizabeth. Sex, speech and stereotypes: why women use prestige forms more than men. // *Language in Society*, 1997. – № 26. – P. 51-52.

institutlari orqali amalga oshiriladi. Aynan ularda gender stereotiplar mustahkamlanadi va qayta tiklanadi”<sup>6</sup>. Ijtimoiy aloqa, ijtimoiy tartib, jamiyatdagi ko‘rsatmalar, ayollik va erkaklik haqidagi tushunchalarni aniqlash imkonini beradi.

Ta’kidlash kerakki, ijtimoiy genderni belgilash jamiyatda qabul qilingan stereotiplarga asoslangan bo‘lib, ijtimoiy-tarixiy va kontekstual omillarga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu omillar jamiyatdan, madaniyatdan, kontekstdan yoki davrdan boshqasiga o‘zgarishi sababli, tarjimonlar tarjima qilishda murakkab muammoga duch kelishini kuzatish mumkin. Nissen misollari tarjimonlarning gender tarjimasini muammosini qanday hal qilishini ko‘rsatadi. U misol sifatida Dafne du Mauriyaning “Rebekka” romanidagi bosh qahramonlar Maksim va uning rafiqasi qarindoshlarini Angliya qishloqlaridagi uylariga taklif qilgan sahnani olgan. Kechki ovqatdan so‘ng Maksimning qaynisi ovqatga bo‘lgan hayratini quyidagicha ifodalaydi:

–*Xuddi shu oshpaz, Maksim?*<sup>7</sup>

Nissenning fikriga ko‘ra, roman davomida oshpaz va uning jinsi haqida hech qanday ma’lumot yo‘q, shuning uchun tarjimon oshpazning genderini ko‘rsatishda qiyinchiliklarga duch keladi. Nissen jumlaning grammatik jihatdan aniqlaydigan besh xil tilga tarjima qilgan turli tarjimonlarning namunalarini namoyish etadi:

Fransuzcha: *la meme cuisinière* [aёл]

Italiya: *lo stesso cuoco* [ayol]

Ispancha: *el mismo cocinero* [ayol]

Portugalcha: *a mesma cozinheira* [erkak]

Nemischa: *dieselbe Köchin* [erkak]<sup>8</sup>

Nissen misolida uchta tarjimon “oshpaz”ning genderini ayol deb taxmin qilganligini, qolgan ikkitasi esa unga “erkak” genderini tanlaganligini ta’kidlamoqda. Uning fikricha, tarjimonlar o‘zlarining qarorlarini bilimlari asosida yoki o‘z jamiyatlaridan kelib chiqib qabul qilganlar.

Istalgan xorijiy tildan ona tilga tarjima qilishda tarjimon, ayniqsa, faoliyatini endi boshlayotgan tarjimon xorijiy til ta’siriga tushib qoladi. Bu tarjima tiliga xos bo‘lmagan ibora tuzilishi, so‘z tartibi, xorijiy tildagi so‘zni tarjima tilidagi bitta so‘z bilan berish istagi paydo bo‘lganda namoyon bo‘ladi. Asliyat tili va tarjima tilidagi bunday “nomutanosiblik” tarjimashunoslikda turli darajadagi va turli ko‘rinishdagi “transformatsiya”, ya’ni o‘zgartirish yo‘llaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Tarjima transformatsiyalari asliyat tarjimasini til birligi yordamida kommunikativ jihatdan tarjima tilida mazkur asliyat birliklarga muayyan kontekstda muntazam muqobil birliklarni qo‘llash imkonini mumkin bo‘lmaganda tarjimon tomonidan ularga teng til birliklariga o‘tish bilan bog‘liq o‘zgarishlar sifatida belgilanadi<sup>9</sup>. Gender xususiyatlari tarjima transformatsiyalari yordamida ifodalanishi mumkin.

<sup>6</sup> Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999. – 188 с.

<sup>7</sup> du Maurier, Daphne, Rebecca [1938], New York: Harper Collins.

<sup>8</sup> Wandruszka, Mario (1991): Wer fremde Sprachen nicht kennt ... Das Bild des Menschen in Europas Sprachen. München / Zürich. – P. 65.

<sup>9</sup> Фирсов О.А. Перевод с английского на русский и его комментарий. – М.: Компания Спутник, 2003. – 197 с.

Shunday qilib, badiiy asarlarni tarjima qilishda gender jihatiga jiddiy e'tibor berish yuqori sifatli tarjima yaratishning muhim talabidir.

Dissertatsiyaning **“Gender tarjima nazariyasining asosiy predmeti sifatida”** deb nomlangan ikkinchi bobida Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asarining tarjimasini baholash tasnifi haqida fikr yuritiladi.

Ingliz, rus va o'zbek tillari turli madaniyatlarga ega bo'lib, bu tilga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Va bu ham, o'z navbatida, tarjima jarayonini talab qiladi. Tarjima faoliyat sifatida nafaqat asl tili va vositachi tilni, balki manba til madaniyati va vositachi til madaniyatini ham o'z ichiga oladi.

Vermer (1986) tarjimani “madaniyatlararo ko'chish” deb ta'riflagan. Bu mafkuraviy ko'chishni ham anglatishi mumkin. Mafkuraviy ko'chish – jamiyatni boshqaradigan standart qadriyatlar, g'oyalar va e'tiqodlar to'plami. Binobarin, tarjimon tarjima qilayotgan tillar bilan bog'liq fikr, e'tiqod va qadriyatlarni chuqur bilishi kerak. Tildan unumli foydalanish uchun tarjimonlar o'z tilining izchil va tushunarli tarzda “yaxlitligini” ta'minlashi kerak. Har bir gap, jumla va ibora butun asar ma'nosiga hissa qo'shadigan birlashtiruvchi ko'plab turli masalalar izchilikda ko'rib chiqiladi. Yozuvda izchilikni saqlash bog'langan nutqqa qaraganda ancha qiyin, chunki yozuvchilarga ularning xabari aniq yoki ravshan emasligini bilish uchun og'zaki bo'lmagan mantiqiy maslahatlar yo'q. Shuning uchun, yozuvchilar o'zlarining kelishuv namunalari yanada aniq va puxta rejalashtirishlari kerak. Muvofiqlikka qisman professional formalar orqali erishish mumkin. Nashr qilingan tarjimani tarjimaviy baholash badiiy matni (masalan, she'riyat, roman va hikoya) yoki adabiy bo'lmagan matni (masalan, huquq, iqtisod, tibbiyot, ijtimoiy-madaniy va siyosiy sohadagi matn) baholash bilan barobar bo'lishi mumkin. Nashr etilgan matni baholash tarjimaning yutuq va kamchiliklarini aniqlashga, tarjimaning zaif tomonlarini hal qilishga qaratilgan. Bundan tashqari, tarjima sifati uch jihat bilan aniqlanadi: aniqlik, maqbullik va o'qilish darajasi. Romandagi tarjima tasnifini ko'rish uchun sifatli va miqdoriy tavsiflash usulidan foydalanildi. Bundan tashqari, tarjima sifati Nababanning (6, 39–57) tarjima sifati rubrikasi asosida baholandi. Ushbu tahlil ma'lumotlarini to'plashda “O'tkan kunlar” romani va uning quyidagi to'rt tarjimasidan foydalanildi:

“*Минувшие дни*” (Muhammadnodir Safarov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan, 2009 yil);

*The Days Gone By* (Ilhom To'xtasinov tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan, 2017-yil);

*Days Gone By* (Kerol Yermakova tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan, 2019-yil);

*Bygone Days* (amerikalik tadqiqotchi va tarjimon Mark Edvard Riz tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan, 2019-yil).

Ushbu toifalarning tarjima sifati ko'rsatkichlarini 1-, 2- va 3- jadvallarda ko'rish mumkin.

### Tarjimaning aniqlik mezonlari

Tarjimani baholash mezonlari	Daraja	Sifat ko'rsatkichlari
Aniq va to'g'ri	3	So'zning ma'nosi, texnik atamasi, iborasi, gaplar tuzilishi, jumla yoki manba tili tarjima qilingan tilga aniq ko'chirilgan; ma'nolarni buzish, qo'shish yoki o'chirish mutlaqo yo'q.
O'rtacha aniqlik	2	So'z ma'nosining aksariyati, texnik atama, ibora, gap, jumla yoki manba tilidagi matn tarjima qilingan tilga aniq o'tkazilgan, ammo ba'zi ma'no o'zgarishi, ikkilangan ma'no tarjimasi (noaniq), ma'noning yo'qolishi yoki xabarning yaxlitligini buzadigan ma'no qo'shilishi mavjud.
Aniq emas	1	So'zning ma'nosi, texnik atamasi, iborasi, gap strukturasi, jumla yoki manba tilidagi matn yo'naltirilgan tilga noto'g'ri kiritilgan yoki tushirib qoldirilgan yoki qo'shilgan.

**Aniq va to'g'ri.** Mil.avv. I asrda yashagan mashhur rim yozuvchisi va notig'i Sitseron yunon notiqalari asarlarini til me'yorlarini buzmaganda holda lotin tiliga o'g'irgan. Sitseron asliyat tilining tuzilishi va ma'nosini saqlab qolgan, lekin u so'z tanlashda lotin tilining xususiyatlariga amal qilgan. Shuning uchun u matnni so'zma-so'z tarjima qilgan, har bir jumlada ma'no va so'z ta'sirini aks ettira olgan. "O'ylashimcha, kitobxon mendan aniqlikni talab qiladi", degan Sitseron va yunon mualliflarining asarlarini aniq uslubda lotin o'quvchilariga yetkazgan. U tarjima matnining o'ziga xos xususiyatlari — shakl, tarkib va fikr moyilligiga alohida e'tibor qaratgan.

Masalan:

– *Ul kundash bo'lg'anda men kundash emasmi?* (8, 191)

– *"If she is a kundosh, don't I also hold the title of kundosh?"* (9, 569).

*Kundosh* – bir er nikohidagi bir necha xotin (bir-biriga nisbatan). Bu yerda asli qadimgi turkiy tildagi "qizg'an" – g'ayirlik qil ma'nosini anglatgan. Ko'n – fe'lidan "-i" qo'shimchasi bilan kuni oti unga -la qo'shimchasi qo'shib, kunida fe'li va nihoyat "-sh" qo'shimcha qo'shib kundosh oti yasalgan. Keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmagan. Bu so'zni tarjima qilishda M.Riz yaxshi yo'l tutgan, ya'ni u kundosh so'zining o'zini qo'llab, asar oxirida so'zga izoh qoldirgan. Bunga sabab, *kundosh* so'zi realiya hisoblanib, ekvivalentsiz leksika sifatida qaraladi. M. Rizning yozgan izohi quyidagicha:

*Kundosh: A kundosh is part of a presumably wealthy man's bevy of brides. The literal translation is "day companion" — "Kun" meaning day, "dosh" meaning someone who shares a status or situation with you. Yuldosh, "yul" meaning road, meanings traveling companion. The trope of the kundosh not getting along with and hating the husband is a common theme throughout Jadid literature, and here we are offered a comic tableau for the reader. Qodiriy also*

*strikes upon an important aspect of modernist Islam: A Muslim man may not take more brides than he can “deal with Justly” (Koran, Sura 4 [An-Nisa]. Ayah 3). E.g., he couches his arguments for reform against common Islamic practices within Islam itself — not through erroneous, common beliefs or Soviet ideology.*

Tarjimasi:

*Kundosh: boy odamning xotinlarni sevishining bir qismidir. Lug‘at tarjimasi “kunduzgi hamroh” — “kun” degan ma‘noni anglatadi, “dosh” siz bilan maqom yoki vaziyatni baham ko‘radigan odamni anglatadi. Yo‘ldosh, “yul” yo‘lni, sayohat hamrohini anglatadi. Kundoshning turmush o‘rtog‘i bilan til topishmaslik va nafratlanish jadid adabiyotida keng tarqalgan mavzu bo‘lib, bu yerda biz o‘quvchi uchun hajviy jadval taklif qilingan. Qodiriy, shuningdek, islomning muhim jihatlari gah ishora qiladi: Agar yetimlarga adolat qila olmaslikdan qo‘rqmasangiz, o‘zingizga yoqqan ayollardan ikkitami, uchtami, to‘rttami nikohlab oling. Agar adolat qila olmaslikdan qo‘rqsangiz, bittani (oling) yoki qo‘lingizda mulk bo‘lganlar bilan (kifoyalaning). Mana shu jabr qilmasligingizga yaqinroqdir (Qur‘on, “Niso” surasi, 3-oyat). Masalan, u islohot uchun o‘z dalillarini islomning o‘zida, noto‘g‘ri e‘tiqod yoki sovet mafkurasi orqali emas, balki umumiy islomiy amaliyotlarga qarshi qo‘yadi.*

Yuqoridagi ma‘lumotlarda ishlatilgan tarjima texnikasiga qaramay, tarjima natijasi aniq, chunki ma‘noda o‘zgarish yoki buzilish yo‘q.

— *Shu arzimag‘an narsani Saodat bilan ukasiga hayitlikka olib kelgan edim, bu aybim uchun albatta mendan koyimassiz, dedim (“O‘tkan kunlar”, A. Qodiriy, 107-b.).*

*‘I brought you these trifles on this feast day. And for Saodat and her little brother, too. Do not judge me for this’ (2, 183).*

Uka bir ota-ona o‘g‘illaridan eng kichigi. Ushbu so‘zning tarjimasini Yermakova o‘z tarjimasida *little brother* shaklida keltirilgan bo‘lib, bu aynan akadan yoshi kichik erkak genderiga tegishli shaxsni ifodalaydi. Agarda tarjimada *brother* shaklida keltirilgan bo‘lganda, asarda nazarda tutilgan qahramon yosh jihatidan katta yoki kichikligini aniqlash biroz qiyinlashadi. Va bu, o‘z navbatida, tarjimaning aniqligiga ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

**O‘rtacha aniqlik.** Aniqlik talabiga rioya qilinmasa, tarjimada mas‘uliyatsizlik yuzaga keladi. Tarjimalardagi g‘alazlik ham ana shu mas‘uliyatsizlik oqibatida paydo bo‘ladi. Albatta, tarjima nazariyasi prinsiplari o‘ta darajada qat‘iy emas, ularda nazariya nisbiy, shartli qoidalar ham mavjud. Ularga ijodiy qaramoq joiz. Ularni bilish va ijodiy yondashish tarjimomni turli mas‘uliyatsizliklardan, to‘laqonli bo‘lmagan ishlarni tarjima, deb atashdan saqlaydi.

Tarjimada so‘z tanlash va izlashda aniqlik mezoniga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Sifatli va to‘g‘ri tarjima talablarida ham aniqlikning o‘rni birinchi darajada turadi. Aniq so‘zlar bilan fikrni aniq bayon qilish kishilararo munosabat va muammolarda, ilmda, adabiyotda e‘tiborli hamda teran madaniyat belgisidir. Tarjimada aniq so‘z, mutanosib muqobil topilmasa, obrazli ifoda ham chiqmaydi. Bular tarjimonlik talanti bor-yo‘qligini ko‘rsatadigan belgilardir.

Misol uchun:

*Ikkita to‘tidedek xotiningiz bek akam uchun sochini tarab o‘lturadir... tag‘in qanaqa kamu ko‘st?* (O‘tkan kunlar, A. Qodiriy, 156-b.)

*‘Two beautiful wives comb their hair for you, bek. What else do you lack?’* (11, 283)

Yuqoridagi misol “unchalik aniq emas” toifasiga kiritilgan, chunki vositachi tilda tarjimon tomonidan aniq ko‘rsatilmagan ma‘lumotlar mavjud. Ushbu misolda Otabekning ikki xotini, Kumush va Zaynab, juda chiroyli, go‘zal ayollar bo‘lganligi uchun ular xuddi to‘tiga qiyoslangan. To‘ti so‘zi bu yerda ko‘chma ma‘noda ishlatilgan va faqat ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan so‘z hisoblanadi. To‘ti so‘zi juda chiroyli, go‘zal ayol degan ma‘noni anglatib, metafora hosil qilgan. To‘xtasinov shunchaki beautiful wives deb tarjima qilgan, bu yerda tarjima to‘g‘ri bo‘lsa-da, badiiy bo‘yoqdorlik yo‘qolgan. Ushbu holatda har ikki tilga mos metaforik o‘xshatish ekvivalenti topilganda, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Nimaga to‘ti so‘zining aynan o‘z tarjimasi (*parrot*) olinmagan degan savol paydo bo‘lishi ham mumkin: bunga sabab shundaki, to‘ti qush inglizxon xalqlar orasida ko‘p gapiradigan, boshqa insonlarning fikr-mulohazalarini o‘g‘iraydigan insonga nisbatan ishlatiladi. Ko‘rib turganingizdek, birgina so‘z o‘zbek va ingliz xalqlari mentalitetida o‘zgacha ma‘nolarda anglashilib keladi. Shu sababdan ham tarjimaning bu bobida anchayin puxtalik va sinchkovlik talab qilinadi.

**Aniq emas.** Tarjimon suhbatdosh yoki mijozning raqibi emas, balki bir tilda yaratilgan og‘zaki yoki yozma matnni boshqa tilda qayta ifodalovchi shaxsdir. Bundan kelib chiqadiki, matn tarjimon uchun daxlsizdir. Agar qo‘shimcha vazifa moslashuv, tanlash, qo‘shimchalar va boshqalar bo‘lsa, tarjimon matnni tarjima qilish, qisqartirish yoki kengaytirish vaqtida mazmuni va tarkibini o‘zgartirishga haqli emas.

Misol:

*Ikkisi Salor bo‘yig‘a yetib, To‘la qozoqning kelinchagiga etni sho‘rva qilish uchun berdilar* (O‘tkan kunlar, A. Qodiriy, 155-b.).

*Ali and Atabek handed the meat to a young woman called Tula Kazakha, asking her to cook them some shurpa-soup* (*Days Gone By*, K. Yermakova, 262-b.).

O‘zbek adabiy tilida kelin so‘zi endi turmushga chiqqan qiz ma‘nosini anglatadi. Kelin — o‘zidan yosh bo‘lgan qarindosh yoki yaqin kishining xotini va shu xotinga murojaat shakli sanaladi. Kelinchak so‘zi esa kelimga nisbatan kichraytirish, erkalash va uning yangi oilasiga endi kelganligi yosh jihatidan ancha kichikligi hisobga olinib qo‘llanilishi. Lekin bu yerda kelinchak deganda To‘la qozoqning xotini nazarda tutilgan. Yermakova o‘z tarjimasida kelinchak so‘zini *a young woman* deb qo‘llagan. Ammo bu so‘z kelinchak so‘zidan ma‘nosi ancha yiroq bo‘lib, umumiy ma‘noda yosh ayollarni anglatgan va u ayolning To‘la Qozoqqa kim bo‘lishini ham matndan tushunib olishimiz ancha mushkul. Agar e‘tibor bergan bo‘lsangiz, hozirgi tarjimada To‘la qozoq yosh ayol degan ma‘no kelib chiqadi. Asarni to‘liq o‘qimagan o‘quvchilar a young woman so‘zini xizmatkor ayol sifatida ham tushunishi mumkin.

Yana bir misol:

*O‘zbek oyimning amricha Oybodoq, Zaynab va hasharchi xotinlar kulcha yasashg‘a o‘lturdilar (O‘tkan kunlar, A.Qodiriy, 170-b.).*

*Following Uzbekayim's orders, Zainab finished her cleaning and began helping the women to make the sweet buns (Days Gone By, K. Yermakova, 287-b.).*

Hasharchi — biror ishni bajarishda ko‘pchilik bo‘lib, ixtiyoriy ko‘mak beruvchi shaxs. Hashar so‘zi ingliz va rus tillarida mavjud emasligi hamda mos ekvivalent yo‘qligi tufayli ham boshqa tarjimalarda transliteratsiyadan foydalanilgan holda so‘zning aynan o‘zi olingan. Shuningdek, ushbu so‘zdan ingliz va rus tillaridan yangi so‘z hosil qilishning ham iloji yo‘q. Ammo ushbu tarjimada hasharchi so‘zi tashlab ketilgan; masalaning yana bir ajablanarli tomoni shundaki, Yermakova Oybodoq obrazini ham tashlab ketgan. Bu tarjimada jiddiy xatolikni yuzaga keltirgan va tarjimaning aniqligini kamaytirgan.

2-jadval.

### Tarjimaning maqbullik darajasi

Tarjimani baholash mezon	Daraja	Sifat ko‘rsatkichlari
Ma‘qul	3	Tarjima ilmiy; texnik atamalar qoidalarga muvofiq va o‘z o‘rnida ishlatilgan va o‘quvchiga tanish; ishlatilgan iboralar, gap va jumlar tarjima qilingan til qoidalarga mos keladi.
O‘rtacha ma‘qul	2	Umuman olganda, tarjima deyarli ilmiy, ammo texnik atamalardan foydalanishda yoki ba‘zi bir grammatik xususiyati bilan bog‘liq xato va muammolar mavjud.
Ma‘qul emas	1	Tarjimalar tabiiy emas yoki tarjima ishiga o‘xshamaydi; ishlatilgan texnik atamalar odatda qo‘llanilmaydi va ular o‘quvchiga tanish emas; ishlatilgan iboralar, gap va jumlar asliyat tilining qoidalarga mos kelmaydi.

**Ma‘qul tarjima.** Tilning leksik qatlamlari, leksik-stilistik vosita va usullardan o‘rinli foydalanish tarjimaning leksik muammolarini ijobiy hal etish va natijada tarjima sifatini oshirish, to‘g‘ri kelish darajasiga erishish imkonini beradi.

*Podachining tovshini eshitib, dalaga oshiqg‘an onasig‘a ergashib qashqa buzoq ham mag‘rab yubordi (O‘tkan kunlar, A.Qodiriy, 155-b.).*

*A calf with a white star on his forehead was mooing loudly as he trotted behind his mother who was hurrying towards the calling cowherd (Days Gone By, K. Yermakova).*

Podachi oti o‘zbek tilida “yirik chorva mollarining birga boqiladigan to‘dasi” ma‘nosini anglatadigan tojikcha poda otidan *-chi* qo‘shimchasi bilan yasalgan bo‘lib, “yirik chorva mollarini keng o‘tloqda boqadigan kishi” ma‘nosini anglatadi. Ushbu gapdagi buzoq molning, sigirning bolasi ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, Yermakova tarjimasi: “cowherd” — molboqar, podachi, mol boquvchi so‘zi asardagi podachi so‘zining ayni ma‘nosiga ko‘proq mos keladi. Chunki ushbu tarjima orqali o‘quvchi vaziyatdagi jarayonni to‘g‘ri tushuna oladi.

*Gulsinning yonig‘a Xonimbibi qo‘shilishdi: — Ko‘b o‘ylashmang, o‘rtoqlar! — dedi, — baribir bu gap hammamizning ham boshimizda bor! (O‘tkan kunlar, A. Qodiriy, 29-b.)*

*Гульсун поддержала Ханым-биби: — Не грустите, подруженьки! Все равно мы все через это пройдем! (4)*

Ushbu parchada belgilangan *ўртоқлар* so‘zi kishilarga murojaat qilishda har ikkala jins vakillariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Safarovning rus tilidagi *подруженьки* tarjimasida esa, so‘zlovchining nutqi gender jihatdan faqat qizlarga qaratilganligini bilish mumkin. Chunki keltirilgan bu parcha asarning “To‘y, qizlar majlisi” bobidan olingan. Bu jihatdan rus tilidagi tarjimada faqat bir jins vakili ifodalanganligini bilish mumkin. Va bu tarjimaga aniqlik kiritgan.

**Ma‘qul emas.** *O‘zbek oyim qudachasig‘a qaradi: — Fotiha berasizmi, quda!* (O‘tkan kunlar, A. Qodiriy)

*Uzbek Oyim looked at Oftob Oyim. “Will you recite the Fatiha, In-Law?”*

Quda so‘zi kuyov va kelinning ota-onalariga (bir-birlariga nisbatan) aytiladi. Bu so‘z ikki jins vakillariga ham ishlatiladi, lekin ayol quda yoki erkak quda deyish orqali ajratsak bo‘ladi. Riz tarjimasida “*quda*” so‘zi “*in-law*” deb tarjima qilingan, bunda nikoh orqali qarindosh degan ma‘no tushuniladi. Lekin *quda* so‘zi ekvivalentsiz leksika (realiya) hisoblanishini inobatga olsak, ushbu tarjimaga *maqul emas* degan xususiyat belgilangan.

3-jadval.

### Tarjimaning o‘qilish darajasi

Tarjimani baholash mezonlari	Daraja	Sifat ko‘rsatkichlari
Yuqori	3	So‘zlarni, texnik atamalarini, iboralarni, gaplarni, jummalarni yoki matn tarjimalarini o‘quvchi osonlikcha tushunishi mumkin.
O‘rtacha	2	Umuman olganda, tarjimani o‘quvchi tushunishi mumkin, ammo bir necha marta o‘qilishi kerak bo‘lgan ba‘zi qismlar ham mavjud.
Past	1	Tarjimani o‘quvchi tushunishi qiyin.

O‘qilish darajasi asosan jumlaning o‘rtacha uzunligini, yangi so‘zlar sonini va tarjimada ishlatiladigan tilning grammatik murakkabligini o‘z ichiga oladi. O‘qilish darajasi to‘g‘risida olingan ma‘lumotlarning natijalari quyidagi misollarda tushuntirilgan.

Yuqori o‘qilish darajasi

*Hoji etak silkkan* (“O‘tkan kunlar”, uchinchi bo‘lim, IX bob, A. Qodiriy, 183-b.).

*Hajji Shakes The Hem of His Robe; in which he renounces worldly affairs (Bygone Days, Mark Riz).*

Etak silkmoq iborasi kiyimining etagini silkmoq, ko‘chma ma‘noda esa dunyodan barcha narsadan umid uzmoq, uzlatga chekinmoq (yakkalanish) ma‘nolarni bildiradi. Quyidagi tarjima shakli esa asarning bo‘yoqdorligiga birmuncha ta‘sir o‘tkazadi. M. Riz bu iborani to‘g‘ri anglagan va “*shake the hem of his robe*”, ya‘ni “ko‘ylagining etagini silkdi” deb tarjima qilgan. “Uzlatga chekinmoq” —

yakkalanmoq, yolg'izlanmoq degan ma'nolarni anglatadi, ammo "umidsizlikka tushmoq, chorasiz qolmoq" degani emas. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tarjimalar orasida Mark Riz tarjimasi to'g'ri, so'zma-so'z tarjima qilingan, shuningdek, u ushbu birikmani qanday ma'noda kelganligini ifodalash maqsadida izoh ham keltirgan.

Yana bir misol:

— *Toshkand Beklarbegi madrasasining peshqadam mullabachchalaridan edi, lekin uch yilcha bo'ldi, xo'jamiz madrasadan olib savdo ishiga qo'ydilar ("O'tkan kunlar", A. Qodiriy).*

*"He was one of the leading students at the Beklarbegi Madrassa, 46 but after three years, upon his father's request, he went into trading" (Bygone Days, Mark Riz).*

*Tashkent Madrassa: Located in the Isski Juva square, present-day Chorsu Bazaar, made from the bricks of Kukeltash Madrassa, which was built in 1570 by the Shaybanid Dynasty. Abdulla Qodiriy studied both at Beklarbegi and Abdul Qasim Madrassahs, Abul Qasim located near the present-day Oliy Majlis or parliament building on Halklar Dustligi Street. Beklarbegi and Kukeltash, later rebuilt, were eventually turned into museums of atheism in the twentieth century.*

Tarjimasi:

*Toshkent madrasasi: Eski Jo'va maydonida, hozirgi Chorsu bozorida joylashgan bo'lib, 1570-yilda Shayboniylar sulolasi tomonidan qurilgan Ko'kaldosh madrasasining g'ishtlaridan qilingan. Abdulla Qodiriy Beklarbegi va Abul Qosim madrasalarida, Abul Qosimning hozirgi Xalqlar do'stligi ko'chasidagi Oliy Majlis binosi yaqinida tahsil olgan. Keyinchalik qayta qurilgan Beklarbegi va Ko'kaldosh XX asrda, sovet ittifoqi davrida, ateizm muzeyiga aylantirildi.*

Ko'rib turganingizdek, Mark Riz ushbu tarixiy inshootga iqtibos orqali ma'lumot keltirib, tarjimini yanada maromiga yetkazgan hamda o'qilish darajasini oshirgan.

